TURLI YOSHDAGI BOLALARDA KELOID CHANDIQLARNING ETIOPATOGENEZIDA ALLERGIYANING O'RNI

Faqirov Alijon Zohidovich - t.f.d.
Nizomov Qutbiddin Fatxullaevich - katta o'qituvchi
Nizomova Dilnoza - magistrant
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O'zbekiston)

Kirish. So'nggi yillarda turli shikast–lanishlar (tirnalish, shilinish, lat eyish, teri yir-tilishi, tishlangan jarohat) hamda turli ko'lamdagi jarrohlik muolajalaridan keyin terining ta'sirlangan qismida turli o'lchamli keloid chandiqlari ko'payib ketayotganligi turli tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etil–moqda (1,3). Jumladan, Novosibirsk medit–sina markazi professori Ignatov O.I 2010-18 yillar mobaynida bajarilgan kam invaziv operatsiyalardan keyin 8,3% bolalarda turli o'lcham va shaklli keloid chandiqlari paydo bo'lganligini keltirib o'tadi. (2.4) Respub–likamizda o'tkazilgan tadqiqotlar esa teri–ning turli shikastlanishlaridan keyin bolalar-ning har 9-10 nafaridan bittasida keloid chandiqlar paydo bo'layotganligini ko'rsa–tadi. Keloid chandiqlarning hamda bitish–mali kasalliklarning paydo bo'lishi ko'p omilli bo'lib, ular orasida vujudda allergik fonning mavjudligi katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Allergologiya Ilmiy-amaliy markazi xodimi, oliy toifali allergolog Q. F Nizomovning bergan ma'lumotiga qara-landa bugungi kunda aholining 16,5% qismida allergik fon uchraydi, agar bu borada tegishli chora tadbirlar o'tkazilmasa o'n yillardan keyin bu ko'rsatkich 25% ga etishi, ya'ni yer shari aholisining har 4 nafaridan bittasida allergik kasalliklar paydo bo'lishi mumkin. Bularning barchasi bu borada tegishli profilaktik va metafilaktik tadbirlar o'tka–zish lozimligini, mazkur jabhada xalq tabo–bati va zamonaviy meditsinani uyg'un-lashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Tadiqotlardan maqsad; Shikastla-nishlar va jarrohlik muolajalaridan keyin paydo bo'ladigan keloid chandiqlar va bit-ishmali kasalliklarda allergik fonning his-sasini o'rganish.

Tadqiqot obyektlari va usullari; Tananing turli qismlaridagi har xil o'lcham va shaklli keloid chandiqlar hamda operatsi-yadan keyingi bitishmali kasalliklar bilan 2014-24 yillar mobaynida 981 nafar bemor kuzatuvlarimiz ostida bo'lgan. Bemorlarning yoshi 3-17 yoshlar oralig'ida bo'lib, shular-ning 313 nafari (32,0%) qizaloqlar, 668 nafari əsa (68,0%) o'g'il bolalar ədi. Bemorlarning 228 (23,2%) nafarida keloid chandiqlar tananing turli qismlaridagi har xil jadallikka ega bo'lgan shikastlanishlar (tirnalish, shili-nish, lat yeyish, qon quyilishi, yirtilish, tish-langan yara) oqibatida yuz bergan. Bemorlar-ning 203 tasida (21,0)%) chandiqlar 2-3 darajali kuyishlardan keyin, 52 nafar bemorda (5,3%) qashinishlar, 38 nafarida esa (3,9%) hasharot (ari, qandala, taxtakana, chivin) chaqishidan keyin paydo bo'lgan. Bemorlar-ning 460 nafarida (46,8%) əsa keloid chan-diqlar turli ko'lamdagi jarrohlik muolaja-laridan keyin yuzaga kel-gan. Bemorlarning 216 nafarida (22,0%) keloid chandiqlar vaqt o'tgani sayin kat-talasha borgan, bu esa tabiiyki ota-onalar tomonidan tashvishga tushishga va shifo-korga murojaat qilishga sabab bo'lgan. 249 nafar bemorda (25,1%) keloid chandiqlar stabil holatda bo'lgan, bemorlarning qolganlarida regressiyaga mo-yillik kuzatilgan.

Bemorlarni keloidni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui qo'llani-lishdan avval vujididagi allergik fon tekshi-rildi. Bemorlarning 48 nafarida (71,6%) qonda eozinofillarning nisbiy va mutlaq ko'rsatkichlari me'yordan yuqoriligi, shu bilan birga 43 nafarida (64,1%) E immunoglobulini oshganligi aniqlandi. Kopro-logik tekshirish-lar bemorlarning 34 nafa-rida (50,7%) bitta, 9 nafarida əsa (13,4%) ikki va undan ortiq turdagi gijjalar borligini ko'rsatdi.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tish mum-kinki, plastik, estetik va kosmetologik xirurgi-yaga tobora katta e'tibor qarati-layotgan, insoniyat tobora go'zallikka intila-yotgan davrda terining turli tuman keloid chandiqlari

ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababdan asrimizda tobora ko'payib borayotgan keloid chandiqlari etiologiyasi va patogenezini mufassal o'rganish, shu bilan birga aholi orasida tobora ko'proq uchrayotgan allergik fonni kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlar majmuini ishlab chiqish, bu borada ekologik muvozanat, atrof muhit tozaligiga ahamiyat qaratish, sog'lom va to'g'ri ovqatlanishni targ'ib qilishga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Bu borada davlat mutasaddilari, pediatrlar, allergologlar, plastik jarrohlar, gelmin-tologlar, bolalar jarrohlari hamda ɔkologlar, dietologlar yonma yon turib mehnat qilish-lari lozim.

ADABIYOTLAR

1. Alijon Faqirov. Sravnitelьnaya xarakteristika metodov operatsii pri epispadii. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2004.

2. Alijon Faqirov. Bolalar urologiyasi. Meditsina oliygohlari uchun darslik, Toshkent, YAngi asr avlodi nashriyoti,2018.

3. A.Astafyeva.Lekarstvennaya allergiya. Monografiya, Moskva, 2020

4. I.Rozikova, A. Faqirov, Q. Nizomov, G. Razikova. Allergologiya, immunologiya va dermatologiyada tibbiy deontologiya va kasb ɔtikasi. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2024. M.Haqberdiev, va boshq. Bolalarda allergik kasalliklar. Monografiya, Toshkent, 2013